



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№24 (786), 2024-yil 26-dekabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Qutlov

YUTUQLARIMIZ ZAMIRIDAGI IZLANISH, INTILISH VA FIDOYILIK

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda katta omil bo'lmoqda



Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori

Qadri hamkasblar va mehnat faxriylari hamda korxonamiz yoshlari!

Sizlarni va sizlar orqali oila a'zolaringizni kirib kelayotgan Yangi – 2025-yil bilan chin qalbdan samimiy tabriklayman.

Poyoniga yetib borayotgan yil jonajon Vatanimiz taraqqiyoti va barcha fuqarolarimiz uchun o'ziga xos yil bo'ldi. 2024-yilda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida ro'y bergan yangilanish va o'zgarishlar xalqimizning hayotida katta iz qoldirdi. Tanti, mehnatkash va fidoyi xalqimiz ulkan marralarni zabt etish yo'lidagi bunyodkorlik salohiyatini namoyon qilmoqda. Tan olib aytish kerakki, yurtimizdagi tinchlik-totuvlik, ahillik, davlatimizning xalqparvar siyosati mamlakatimizning rivojlanishi va xalqimizning farovonligiga asos bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston xalqaro maydonda o'z so'ziga va o'rniga ega bo'layotganligi ayni haqiqatdir. Bu borada O'zbekistonning dunyo miqyosidagi muammolari hal etish, tinchlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirish borasidagi tashabbuslari davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-

quvvatlanayotgani barchamizga iftixor va g'urur bag'ishlayapti.

Jamoamiz 2024-yilda barcha jabhalarda muvaffaqiyatlarga erishib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha katta yutuqlarni o'lga kiritdi. Korxonamizni zamonaviy kompaniyaga aylantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish hamda investitsion loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish yo'lidagi qilingan fido-korona mehnat tufayli 93,3 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,3 foizni tashkil qildi. Joriy yilda oltin ishlab chiqarish rejasini 105,2 foizga, kumush ishlab chiqarish rejasini 113,4 foizga bajarildi.

Tarix sahifalariga o'tayotgan yilda kombinatning barcha kon boshqarmalari, zavod va konlar jamoalari chinakam fidoiylik va vatanparvarlik namunalarni ko'rsatib, matonatli mehnat qildilar. Katta tashkilotchilik va zahmatli mehnatning samarasi o'laroq, dekabr oyining ikkinchi yarmidan Markaziy, Shimoliy, Janubiy va “Qizilqum” kon boshqarmalari jamoalari o'zlarining mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yillik rejalarni muddatidan oldin bajarishgani buning isbotidir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati bugun geologiya, konchilik, metallurgiya, energetika, mahalliyashtirish, transport, qurilish kabi yirik hamda boshqa muhim sohalarni mujassam etgan ko'p tarmoqli strategik ishlab chiqarish korxonasi hisoblanadi. Bu tarmoqlarning har biri bo'yicha keng qamrovli ishlar, loyihalar, dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kombinatni rivojlantirish, kelgusi istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Har qanday korxonani rivojlantirishda Investitsiya dasturi alohida rol o'ynaydi. Keyingi sakkiz yil bunday loyihalarni amalga oshirishda bizga katta tajriba-sinov maktabi bo'ldi. Shu davrda o'z kuchimiz, bilim va salohiyatimiz bilan yirik hajmdagi ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib, bildirilgan yuksak ishonchni oqlab kelyapmiz. Joriy yilda Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasining g'ayrat-shijoati bilan qiymati 402,2 million AQSH dollari bo'lgan ikkita yirik – “Pistali” konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlab majmuasining infratuzilma obyektlarini qurish va “Amudaryo-Zarafshon” suv quvurining 3-liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya



qilish loyihalari ishga tushirildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 914,5 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu borada o'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 145,3 foizni tashkil etyapti. Bu ishlarni amalga oshirishda Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodi, bo'linmalardagi sexlar jamoalarining his-sasi katta bo'ldi.

Korxonamiz xalqaro miqyosda muhim yutuqlarni o'lga kiritdi. Joriy yilda kombinat “S&P Global Ratings” va Fitch Ratings” xalqaro reyting agentliklari tomonidan birinchi kredit reytingini oldi. Bu – O'zbekiston kompaniyalariga berilgan eng yuqori reyting ekanligi katta yutug'imizdir. Buning uzviy davomi sifatida ilk bor bir milliard AQSH dollari miqdoridagi xalqaro korporativ obligatsiyalarni chiqarish va London fond birjasida joylashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar kon-metallurgiya sanoati solnomasidan tarixiy voqiyelik sifatida joy oldi. Shuningdek, NKMK Gender tengligini qo'llab-quvvatlash doirasida “International Women in Mining” xalqaro uyushmasi a'zoliciga qabul qilinishi, “CERT International” tashkiloti

tomonidan kombinatga “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini berilgani yuksak darajadagi e'tirofdir.

Ishlab chiqarish bo'linmalarimizning har birida turli yo'nalishlar bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. 3-gidrometallurgiya zavodida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo'llash orqali avtomatlashtirish bo'yicha pilot loyiha amalga oshirildi. Ayni paytda korxonaning qayta ish-lash yillik quvvatini 10 million tonnaga yetkazish ustida ishlar jadallik bilan olib borilyapti.

Yil yakunlari sarhisobini qilar ekanmiz, kombinat tomonidan ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga alohida to'xtalib o'tishim zarur. Kombinat rahbariyati va kasaba uyushma Kengashi hamkorligida Jamoa shartnomasida ishchi-xodimlarimiz, ularning oila a'zolari, ishlab chiqarish faxriylari uchun nazarda tutilgan majburiyatlarimizni bajardik. “Yashil makon” dasturi doirasida salmoqli ishlar qilindi.

Yuqorida keltirib o'tilgan raqam va yutuqlar zamiroda, albatta, kecha-yu kunduz olib borilgan mashaqqatli mehnat mahsulati mujassam. Buning

uchun barchangizga samimiy tashakkurimizni bildiriramiz.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, mamlakat va korxonalar oldiga kutilmagan vazifa hamda muammolarni qo'yimoqda. Shu bois barchamiz doim izlanishda va intilishda bo'lishimiz kerak. Shu bilan bir qatorda zimmamizda kombinatni 2030-yil-gacha barqaror rivojlantirish dasturi va boshqa muhim vazifalarni amalga oshirishdek ulug'vor ishlar turibdi.

Keling, Yangi yil ostonasida yaxshi niyat qilaylik! Ilohim, Yaratganing o'zi kelayotgan yilda ham ishimizga rivoj berib, yuzimizni yorug' qilsin. Zero, har qanday xayrli ish yaxshi niyatlardan boshlanadi.

Sizlarni, sizlar orqali oila a'zolaringizni Yangi – 2025-yil bayrami bilan yana bir bor chin qalbdan samimiy muborakbod etaman.

Barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, mas'uliyatli va sharafli ishlaringizda omadlar tilayman.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mehnatsevar xalqimiz sog'-omon bo'lsin! Yangi yil yurtimizga qut-baraka va farovonlik olib kelsin!

Sarhisob

JAMOAMIZ MATONATI VA SHIJOATI

maqsadlarimizga erishish yo'lidagi asosiy kuch

Mamlakatimizda erishilayotgan iqtisodiy yutuqlarda Markaziy kon boshqarmasi jamoasining munosib hissasi borligini mamnuniyat bilan e'tirof etmoqchiman. Bugungi kunda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaga daxldor yirik loyihalarning boshlanishidan tortib, ularni bevosita ro'yobga chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda boshqarmamizning malakali mutaxassislari, tajribali muhandis-texnologlari ishtirok etmoqdalar.

Har qanday murakkab sharoitda ham rejalarni bajarilayotganligi kon boshqarmamizda yagona maqsadli, hamjihat, ish manfaatli uchun jonkuyar jamoa shakllanganligini yorqin isbotidir. Bo'linmalarimizda turli millat vakillari bir oila, bir jamoa bo'lib mehnat qilayotganliklardan doimo faxrlanishadi. Tashabbuskor, sahraning ekstremal sharoitida toblangan, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan mutaxassislarimiz texnik, texnologik yangilanish, modernizatsiya qilish,

ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirib kelishmoqda.

Eng quvonchlisi, jamoamiz yosharayapti, safimizga qobiliyatli, mas'uliyatli yoshlar kelib qo'shilmog'da. Ular zimmalariga yuklatilgan har qanday topshiriqlarni sharaf bilan bajarishmoqda. Bu bilan biz ishlab chiqarish borasidagi rejalarni bajarish bilan birgalikda o'zimizga munosib o'rinbosarlarni tayyorlayapmiz.

Davomi 2-betda

Shukuhli kunlar arafasida turibmiz. Yangi – 2025-yilga ulkan reja va maqsadlar, ilm va shijoat bilan qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdamiz. Yakunlanayotgan yilda kon boshqarmasining matonatli mutaxassislari, ishchan xodimlari bilan yelkama-yelka, sinovlarni g'olibona yengib, erishilgan natijalardan ko'nglimizda xursandlik hukmron. Bosh direktorimiz tomonidan jamoamizga berilgan ko'rsatkichlarni muddatidan oldin bajarishga erishdik. Bu, bizni quvontirish bilan birga, faoliyatimizni yanada teranroq sarhisob qilib, mas'uliyat va javobgarlik hissi bilan yashamoq va mehnat qilmoqqa hamda yangi-yangi rejalar sari ruhlantiradi. Bu borada bizga Prezidentimizning keng qamrovli yaratuvchanlik islohoti ilhom, kombinat rahbariyatining har jihatdan qo'llab-quvvatlovi qanot bo'layotganini ta'kidlash zarur.

YAKUNLAR QUVONCHLI, REJALAR YUKSAK

2024-yil Shimoliy kon boshqarmasi uchun barakali va sinovli yil bo'ldi. Sanoatga tadqiqat etilgan zamonaviy texnologiyalar, samarali investitsion loyihalar va soha mutaxassislarining strategik ishlarni amalga oshirish yo'lini oqladi. Biz, avvalo, ishni, muhtaram Prezidentimizning hayotbaxsh siyosatidan kuch olib, inson qadri tamoyili asosida olib bordik. Zero, ishchi-xodimlar mehnati uchun zarur shart-sharoit va muhitni yaratmay, tobora shiddat bilan shoshayotgan davr va kuchli raqobat bozori ruhiga mos harakatlanmay, texnik va texnologik qudratni zamonasoz holatga

shaylamay turib, samara kutib bo'lmaydi. Ulkan rejalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun quvontirish yo'lini yaratish va bunyodkorlik maqsadlari bilan boshladik. Bu xayrli ishlar Bosh direktorimiz tomonidan tasdiqlangan “Manzilli qurilishlar dasturi”ga muvofiq bajarildi. Ushbu dasturga asosan, 2024-yilda kon boshqarmasidagi bunyodkorlik va qurilish-ta'mirlash ishlari uchun 1 trillion 572 milliard 800 million so'm mablag' sarflandi.

Davomi 2-betda

YANGI O'ZBEKISTON RAVNAQI YO'LIDA

Xalqaro ekspertlarning tahliliga ko'ra, bugun jahon energetika sektori jadallik bilan o'sib bormoqda va uni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Uran-atom energetikasining asosiy energiya manbai bo'lib, dunyodagi elektr energiyasining qariyb 20 foizini tashkil qiladi. Ahamiyatli, bugun “o'zbek urani” deya jahon bozorlarini zabt etayotgan mahsulotimiz ushbu ulushda katta o'rin egallaydi.

2030-yilgacha “Navoiyuran”da 550 million dollarlik 11 ta loyihani amalga oshirish orqali, uran zaxiralarini 100 ming tonnaga yetkazish, ishlab chiqarish 3 barobarga oshirilishi belgilangan. Bugungi kunda ishlab chiqarishning ushbu parametrlarini so'zsiz bajarish bilan birga, korxonada transformatsiyasini jadallashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Albatta, har bir yilning ahamiyati uning yakuniy sarhisobi bilan belgilanadi. Erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil etiladi, kelgusidagi rejalar tuzib olinadi. “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”, deb nomlangan 2024-yil ham ortda qolmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlab olib borayotgan siyosatining maqsadi – respublika uran sanoatining yanada taraqqiy etishini ta'minlash, Yangi O'zbekistonning uran ishlab chiqaruvchi sifatida dunyo arenasidagi yuqori maqomini yanada mustahkamlashdir. Davlat rahbari korxonaga

oldiga qo'ygan asosiy vazifa – geologik o'rganishdan tortib, chuqur qayta ishlangan mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oluvchi zamonaviy klaster yaratishdan iborat.

“Navoiyuran” davlat korxonasi ishlab chiqarish quvvatlarida barcha uran ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini qamrab oluvchi sanoat klasterini yaratish vazifasining asosiy omillaridan biri – korxonada tarkibiy bo'linmalarida mavjud bo'lgan quvvatlardir. Jumladan, korxonada tarkibidagi Sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexi (“Uchquduq” IChM) va Plastmassa quvurlari va mahsulotlari ishlab chiqarish sexi (“Nurobod” IChM) korxonaning asosiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Uran qazib olish texnologiyasida eng muhim sarflanadigan materiallardan biri bo'lgan sulfat kislotasi va quvur mahsulotlari ishlab chiqarilishi mazkur klaster yaratish vazifasi uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Davomi 3-betda

JAMOAMIZ MATONATI VA SHIJOATI

maqsadlarimizga erishish yo'lidagi asosiy kuch

❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

O'tayotgan yilni sarhisob qilar ekanimiz, kon boshqarmamizda ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni qo'llash, zavod va konlarni zamonaviy texnika va transport vositalari bilan ta'minlash, ishchi-xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz.

Texnologik ishlab chiqarish zanjirining asosiy nuqtasi hisoblangan "Muruntov" konida hozirda keng qamrovli istiqbolli investitsiyaviy loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. So'nggi yillarda oltin ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan loyihalardan biri - "Muruntov" koni beshinchi navbatining ochilishidir. Konchilik sohasida dunyo miqyosidagi eng so'nggi ishlanmalar qo'llanilayotgan bu loyihaning amalga oshirilishi konda yana uzoq yillar ma'dan qazib chiqarishni ta'minlash hamda 2-gidrometallurgiya zavodida qayta ishlab chiqarishni 50 min. tonnaga yetkazish imkonini berdi. 2013-yilda mazkur kondan rejalashtirilgan 44 million 135 ming kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu reja ko'rsatkichi 115 million kubometrni tashkil etdi. 2024-yilda esa 124 million kubometr dan oshadi.

"Muruntov" konining chuqurligi kengayishi natijasida qazib olinayotgan kon massalarini doimiy va vaqtinchalik saqlash joylariga yetkazishda ish samaradorligini oshirish, vaqt hamda xarajat miqdorini qisqartirish maqsadida, 1984-yildan buyon davriy oqimli texnologiya majmualaridan keng foydalanib kelinmoqda. Ayni paytda ham konda manzilli dastur doirasida Shimoliy-sharqiy davriy oqim texnologiyasi majmuasi hamda 2-sonli konveyer liniyasini kengaytirish, elektr liniyalari, qo'shimcha ag'darma maydonini qurish, ag'darma konveyer liniyasini 1,1 ming metrga uzaytirish ishlari davom etmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-noyabr-dagi 907-sonli qarori bilan "Muruntov" konini o'zlashtirish 5-navbat. 1 bosqich" loyihasi texnik iqtisodiy asosi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra 2016-2026-yillar davomida loyihani amalga oshirish muddati belgilangan. Loyihaning umumiy qiymati 733,9 million dollarni tashkil etadi. Bugungi kunda loyiha doirasida umumiy qiymati 13,36 million dollar bo'lgan "Muruntov" konining janubiy borti-dagi 2-sonli maydalash-yuklash punkti chuqurlashtirish" ishchi loyihasi asosida qurilish-tashirish jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirishning asosiy maqsadi - "Muruntov" konining quyil g'orizontlarida tog'-kon ishlarining suvayishi, tog' jinslarining avtomobillarda tashish masofasining keskin oshishi va avtoag'dargichlar taqchilligi muammolarini bartaraf etish va



2024-2026-yillarda davlat tomonidan belgilangan vazifalarni so'zsiz bajarishga qaratilgan.

Tog' jinslarini konveyer liniyalari orqali tashish eng qulay, samarali va tejamlor imkoniyat ekanini amalda isbotlangan. Bu, hech shubhasiz, ish samaradorligini oshirish bilan birga, ishchi kuchi, vaqt, transport xarajatlari, yoqilg'i-moylash materiallarini tejash demakdir. Loyihaning to'liq amalga oshirilishi yiliga 15 million kubometr tog' jinslarini tashish imkonini berish bilan birga, 1785 ta yangi ish o'rinlarini ham yaratadi. E'tiborli jihati, konveyer liniyalari kombinatning Navoiy mashinasozlik zavodida to'liq mahalliy-lashtirilgan holda tayyorlanmoqda.

Katta hajmdagi yuk tashish texnikalari bo'yicha mamlakatimizda yetakchi bo'lgan Avtomobil transporti boshqarmasining ish hajmi keyingi yillarda bosqichma-bosqich modernizatsiyalash hisobiga kengayib bormoqda. Bugungi kunda boshqarmada 500 ga yaqin BelAZ, Caterpillar, Komatsu, UzXCMG, Volvo, Dressta, Manitou va dunyoning boshqa mashhur korxonalarida ishlab chiqarilgan og'ir yuk ko'taruvchi kon avtotransporti, yo'l-qurilish texnikasi va yordamchi transport vositalaridan foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, ma'nan eskirgan, iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmagan texnikalar zamonaviy, yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega tog'-kon texnikalariga bosqichma-bosqich almashtirilmoqda. 2024-yilda 16 ta "BelAZ-7513" rusumli 136 tonna yuk ko'tarish quvvatiga ega avtoag'dargichlar bosqichma-bosqich 220 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega, "CAT-793D" rusumli zamonaviy texnikalariga almashtirilgan bo'lsa, 10 ta yangi Komatsu 860E-1K rusumli, yuk ko'tarish quvvati 254 tonna bo'lgan avtoag'dargichlar olib kelindi. Xuddi shunday texnikalarning yana 12 tasi keltirilish arafasida.

"Turbay konlarini o'zlashtirish uchun qazib

olish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish" investitsion loyihasi doirasida Xumsoy karyerlarida ochish - qazish ishlari olib borilmoqda. "Turbay" konini o'zlashtirish buyicha 50 kilometrlik temir yo'l qurildi, yangi avtoqarajalar tuzildi. Konda elektr energiya sarfini kamaytirishda muhim o'rin tutadigan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish uchun quvvati 1 MW bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish ishlari rejalashtirilgan. "Auminzo-Amantoy" koni hududidagi transport sexida avtotransport vositalarini ta'mirlashga mo'ljallangan yangi bino va inshootlar qurildi.

Temir yo'l transporti boshqarmasi parki yangilanib, zamonaviylashtirib bormoqda. Birgina, 2017-2022-yillarda umumiy qiymati 588 milliard so'mlik kon texnikalari xarid qilining fikrimizning isbotidir. Bugun Temir yo'l transporti boshqarmasi texnikalari safi yana 4 ta seksiyadan iborat teplovotlar hisobiga oshdi. Rossiya Federatsiyasining "Sharqiy" logistika kompaniyasidan 258 milliard so'mga xarid qilingan bu texnikalar temir yo'l sohasining eng so'nggi rusumdagi avlodiga mansub bo'lib, yuqori quvvatga ega, tejamlor va zamonaviylik bilan ajralib turadi. Bugungi kunda boshqarma temir yo'lchilari "Muruntov" konidan 2-gidrometallurgiya zavodiga sutkasiga tarkibida oltiniga bo'y 147 ming tonnadan ortiq ma'danni yetkazib berib, o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajar-moqdalar.

Keyingi yillarda 2-gidrometallurgiya zavodida ham oltin ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan strategik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti. Yangi, zamonaviy asbob-uskunalar joriy etish hisobidan tayyor mahsulot hajmini oshirishga erishilmoqda. So'nggi to'rt yil mobaynida 2-gidrometallurgiya zavodining maydalash sexida to'qqizta tegirmondan iborat beshta yangi tegirmon bloklari ishga tu-

shirildi.

Investitsion loyihalarni ruyobga chiqarish yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lami ishlarda Tashqi suv ta'minoti birlashgan energo-xizmatining ham o'z o'rni bor. Ayni kunlarda "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi suv tarmog'ini tortish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Qurilish-montaj ishlari 2017-yilda Zarafshon qurilish boshqarmasi ishchi-xodimlari tomonidan boshlanib, hozirgacha 157,3 kilometr uzunlikdagi metall quvurlar o'rnatildi.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ezgu niyat bilan minglab ko'chatlar o'tqazilyapti. Markaziy kon boshqarmasining ahil jamoasi ham bu tadbirlardan chetda turgani yo'q. Mamlakatda o'z o'lim yashil maydonlarni ko'paytirishdek xayrli amallarga katta hissa qo'shyapti. Boshqarmaning kon, zavod va ma'muriy-maishiy binolar atroflarini yashil makonga aylantirish borasida 2024-yilning bahorgi mavsumida 72 ming 289 tup mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazildi. 2024-2025-yil kuz-qish mavsumida cho'l hududiga, issiq garmel va qurg'oqchilikka, sho'rlanishga chidamligi yuqori bo'lgan 30 ming 200 dona saksovl, buta ko'chatlaridan "Turbay" kar'eri hududidagi "Vaxta" shaharchasi atrofida 2,5 gektar yer maydonda "yashil belbog" tashkil etildi.

Yana shuni mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardimki, 2024-yil Markaziy kon boshqarmasi jamoasi uchun alohida ahamiyatli va shukuhli yil bo'ldi. Chunki, bu yil korxonada tashkil topganligining 60 yilligi hamda uning tarkibidagi 2-gidrometallurgiya zavodi va Tashqi suv ta'minoti birlashgan energo-xizmatining 55 yilligi qo'shaloq tantana sifatida nishonlandi.

Yil davomida mas'uliyatli va salohiyatli mutaxassislarimizdan 73 nafari turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi. 25 nafari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati faxriysi" degan nomga munosib ko'rildi. Yurtboshimiz Farmonlari bilan 2 nafar xodimimiz davlat mukofotlari - "Mehnat shuhrati" ordeni va "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz faqat oldinga qarab boryapmiz. Albatta, bu jarayon oson kechmayapti. Shunga qaramay, qutlug' yangi yil arafasida belni mahkam bog'lab, sidqidildan mehnat qilib, barcha sohalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritayotganligimizni ta'kidlamoqchiman. Xususan, 2024-yilda 64,5 trilyon so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, rejani 101,1 foizga bajaranimiz buning vorqin nishonasi bo'ldi.

Elmurad XALIKULOV,
Markaziy kon boshqarmasi direktori.

2-gidrometallurgiya zavodi kombinatning ishlab chiqarish quvvati jihatidan eng yirik korxonasi hisoblanadi. Ayni paytda korxonada 78 ta tegirmon yordamida kuniga 150 ming tonnagacha ma'dan qayta ishlanmoqda.

ZAVOD IMKONIYATLARI KENGAYMOQDA

So'nggi to'rt yilda strategik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilib, maydalash sexida to'qqizta tegirmon ishga tushirildi. Bu, tarkibida oltin bo'lgan ma'danni qayta ishlab chiqarish hajmini 13,5 million tonnaga yoki 2020-yilga nisbatan 20 foizga oshirish imkonini berdi.

E'tiborli jihati, ushbu tegirmonlar va ularga ishlatilgan barcha jihozlar, noyob texnologik uskunalar kombinat mutaxassislarining ulkan salohiyati bilan mahalliy-lashtirilib, Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlandi va katta hajmdagi mablag'ni iqtisod qilishga erishildi, - deydi zavod bosh muhandisi Sardor Polvanov. - Og'irligi 706 tonna va hajmi 134 kubometr bo'lgan sharli tegirmonning o'zimizda tayyorlanishi O'zbekiston og'ir mashinasozlik sanoatida ilk qadam bo'ldi. Bugungi kunda uning to'la quvvatda ishga tushirilishi soatiga 120 tonna ma'danni qayta ishlab chiqarishni bermoqda.

Ayni kunlarda maydalash sexiga yanada yirik hajmli bo'lgan sharli tegirmon o'rnatish ishlari olib borilmoqda. Bu tegirmonning ishga tushirilishi kelgusida ma'danni qayta ishlab chiqarish hajmini yiliga 1,8 million tonnaga oshirish yoki korxonaning yillik quvvatini 55,6 million tonnaga yetkazish imkonini beradi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida joriy yilda qayta ishlangan ma'danning yarmidan oshig'i yoki 53,8 million tonnasi 2-gidrometallurgiya zavodi hissasiga to'g'ri keladi.

Zavodning ishlab chiqarish jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, bu - ishlab chiqarishni mular-tamam kuzatib borish, tejamlorlikka erishish, ish sur'atini yanada oshirishni ta'minlamoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni mahalliy kadrlar boshqarayotgani kombinat kelajagi ishonchli qo'l-larda ekanidan dalolatdir.

Uch ming nafardan ortiq kishilik zavod ahil jamoasi 2024-yilni muvaffaqiyatli yakunlab, 2025-yilni ulkan rejalar bilan qarshi olmoqda.

N.KENJAYEVA.

YAKUNLAR QUVONCHLI, REJALAR YUKSAK

❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Oltmish besh yil oldin qurilgan eski binoda joylashgan Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi hamda Tarmoqlar va podstansiyalar sexi zamonaviy uskunalariga ega muhtasham obyektga ko'chib o'tdi. Kuzatayotgan yilimizda gidrometallurgiya jarayonlarida qo'llaniladigan mikroorganizmlarning ekologik sharoitlarga (pH) harorat oksidlanish-qaytarilish salohiyati moslashtirilgan tahlil qiluvchi, kombinat tarixidagi birinchi biolaboratoriya ishga tushirildi.

3-gidrometallurgiya zavodida Bosh direktorimiz rahnamoligida ishga tushirilgan tegirmonlar soni joriy yilning iyul oyida yana bittaga ko'paydi. Ushbu 7-tegirmon zavodda yiliga yana bir million tonna oltin tarkibli ma'danni qayta ishlab chiqarishni beruvchi qudratli texnologiya ekanini ahamiyatli. "Kokpatas" va "Dovg'iztov" oltin konlarida ma'dan qazib olish. III-navbati" investitsiya loyihasi bo'yicha zavoddagi flotatsiya sexi uchun qo'shimcha flotatsion qurilishni yakunlab, foydalanishga topshirildi. 7-tegirmon bog'lining ishga tushirilishi doirasida flotatsiya, biooksidlash, filtrlash, quritish va kuydirish sexlarining kengaytirilishini ko'zlab, biooksidlash sexining 9, 10-moddalarini quritish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. "Dovg'iztov" konida "Dovg'iztov koni II navbat DUT majmuasining qurilishi" ishchi loyihasining qurilish-montaj ishlari yil yakuniga qadar tugatilib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Zavodda mavjud maishiy xizmat ko'rsatuvchi binolar qatorida 900 o'rinli yana bir inshootning ishga tushirilishi rejalashtirilib, bu yerda rekonstruksiya ishlari davom etmoqda.

Mustaqilligimizning o'ttiz uch yillik shodiyonasi arafasida "Sharqiy" konida barcha qulayliklarga ega 250 o'rinli zamonaviy oshxonaga va "Dovg'iztov" konida bir necha tarmoqlar faoliyatini o'zida jamlagan Ma'muriy kompleks binosi barpo etilib, foydalanishga topshirildi. "Sharqiy" va "Dovg'iztov" konlarining dispetcherlik xonalarida zamonaviy kompyuterlar va interaktiv displeyalar o'rnatilib, ishlab chiqarishga tadbir etildi. Ushbu ishlar barobarida, qisqa fursatlarida "Ajibugut" konini qayta ishga tushirilishiga ham erishildi. Biroz muddat avvalgi sahra qiyofasi o'zgarib, cho'lining o'rtasida barcha qulayliklarga ega sanoat infratuzilmasi yaratildi, xodimlarning yashash va ishlashlari uchun zarur sharoitlar joriy etildi. Noqulay mehnat sharoitlarida ishlayotgan xodimlar filtrlangan toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi, bo'linmalardagi topshiriq berish, ovqatlanish xonalari hamda

kon mexanizmlari va avtoag'dargichlarga konditsionerlar o'rnatildi.

Bozor iqtisodiyoti har bir rahbar va mutaxassisdan zamon bilan hamnafaslikda borishlikni taqozo etadi. Faoliyatimiz davomida tajribali mutaxassislar, bilimli, ilg'or yoshlar salohiyati va zamonaviy texnikalarning qudratiga tayanib, o'sish ko'rsatkichlarini yangilash uchun zamonaviy texnologiyalar bilan zahiralandik. 2024-yil davomida transport parkimizga 12 dona katta hajmdagi Komatsu HD-785-7R rusumli kon avtoag'dargichlari, 2 dona Liebherr PR-776 rusumli buldozer, 3 dona ZL-50 old yuklagich, 2 dona CPCD-25, 2 dona CPCD-20, 1 dona Manitou rusumli yuklagichlar va 1 dona WZ 30-25 rusumli ekskavator-yuklagich keltirildi. 2024-yil I choradagi tashilgan tog' massasining kunlik hajmi 193 ming kubometr, II chorakda 196,8 ming kubometr, III chorakda 205,5 ming kubometr, oktabr oyida esa 214,4 ming kubometrni tashkil etdi. Ushbu raqamlarni 2023 yildagi kunlik tashilgan tog' massasining hajmi bilan taqqoslasak, 2024-yil oktabrdagi kunlik tashilgan tog' massasining hajmi 17 foizga oshganini ko'rish mumkin. Joriy yilda tog' jinsini qazib olish hajmi kon ishlarini rivojlantirish rejasiga nisbatan 108,7 foiz bajarildi va o'tgan yilning joriy davriga nisbatan 108,5 foiz o'sish sur'ati ta'minlandi. Sulfidli ma'dan qazib olish hajmi rejaiga nisbatan 110,4 foiz bajarildi, o'tgan yilning joriy davriga nisbatan 110,3 foiz o'sish sur'ati ta'minlandi. Sulfid ma'danlarini 3-gidrometallurgiya zavodiga yuklash ishlari rejaiga nisbatan 106 foiz bajarildi va o'tgan yilning joriy davriga nisbatan 106,5 foiz o'sish sur'ati ta'minlandi.

Qimmatbaho ehtiyot qismlarni qayta ta'mirlash boshqarmaning iqtisodiy samaradorligiga o'zining joriy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yangi ehtiyot qismlarni sotib olishga bo'lgan ehtiyotni kombinatga qarashli yordamchi tashkilotlar va mahalliy korxonalar tayyorlagan mahsulotlar - mahalliy-lashtirish chig'irigidan o'tgan, o'zimizning sharoitiga chidamli jihozlar bilan ta'dirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hamkorlik doirasida joriy yilda TAD-9 UXL-2 rusumli tortish elektrodviga-tellari Shimoliy kon boshqarmasi va Navoiy mashinasozlik zavodi hamda "Navoiyelektromont" MChJ va "Elmash" MChJlar sharoitlarida qayta ta'mirlanib, 19 milliard 800 million so'm iqtisod qilindi. GST-700-8-UXL2 rusumli sinxron tortish generatorlari o'zimizda - Elektr jihozlarini ta'mirlash uchastkasida qayta ta'mirlandi va bu bilan 8 milliard 60 million so'm iqtisod qilishga



erishildi. Kon boshqarmasida mahalliy-lashtirish dasturi doirasida o'tgan yillardagi bajarilgan ishlar hisobini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda 6,8 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 9,9 milliard so'mni tashkil qildi. 2025-yilda yana 16 ta loyiha asosida 1284 dona, 22,2 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Kuzatayotgan yilimizda kon boshqarmasining har bir tarmog'i, xususan, yoqilg'i-moylash materiallari va ehtiyot qismlarini tejash hisobidan tannaxni kamaytirish bo'yicha 120,7 milliard so'mlik iqtisodiy foyda qilindi. Mobil moy tarqatish konteyneri xarid qilinishi esa avtoag'dargichlarning moy almashtirish jarayonini jadallashtirdi, bu orqali vaqtni tejashga va 1 milliard 200 million so'm iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

Energotejamkorlik borasida yil davomida "Ishlab chiqarish va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish chora-tadbirlari"ga muvofiq, kon boshqarmasi bo'linmalarida jami 728 dona vakuumli, 10 dona maishiy "gelo kollektor" - quyosh nuridan qayta tiklanuvchi elektr manbaalari qurib ishga tushirildi. 2024-yilning may oyidan oktabr oyigacha qadar ushbu qurilmalar to'liq ish faoliyatida bo'lib, umumiy hisobda 86 819 kubometr tabiiy gaz, ya'ni, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannaxriga nisbatan 156 million 274

ming so'm mablag' tejalihsiga erishildi. Yangi yilimizning nomiga monand tarzda, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida, gidrometallurgiya zavodining Kuydirish, quritish va filtrlash sexiga atmosfera havosiga ustuvor turug' un ifloslantiruvchi manbalardan chiqadigan tashlamalarni tahlil qiluvchi avtomatik monitoring stansiya o'rnatildi.

"Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida "Sharqiy", "Dovg'iztov" konlari, Avtomobil transporti boshqarmasi, Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi, Tarmoqlar va podstansiyalar sexi hududlarida va bo'linmalarda qariyb 5 gektardan ortiq yer o'zlashtirilib, "yashil belbog" hosil qilish uchun hashar yo'li bilan murakkab cho'l tabiatiga mos qariyb 35 ming dona daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Kon boshqarmasining qudrati yoshlarimizning tafakkuri va biligidadir! Ular har sohada - ilm, innovatsiya, texnologiya, sport va san'atda ilg'or, peshqadam, tashkiliy masalalarda ishchan va mehnatkash. Bugungi kunda 2544 nafar yoshlar mehnat qilayotgan bo'linmamizda shuuri uyg'oq yoshlar borki, ular tomonidan yangi va foydali bo'lgan jihozlar konstruksiyasini o'zgartirish yoki ishlab chiqarish texnologiyasi uchun texnik yechim, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan, xomashyo, yoqilg'i-energetika va boshqa resurslarni tejashga yordam beradigan yangi rat-

sionalizatorlik takliflari qabul qilinib, g'oya mualliflari moliyaviy rag'batlantirildi. Kon boshqarmasi yoshlarining istiqbolli uchun g'amxo'rlik qilish reja-maqsadlarimizning asosidir. Shu ma'noda, 84 nafar yosh xodimlarimiz respublika malaka oshirish oliy ta'lim muassasalarida, 11 nafar yoshlar kombinat O'quv markazida malakasini oshirdi va qayta tayyorlov kurslarida o'qidi. 570 nafar o'rta-maxsus ma'lumotli yoshlar bugungi kunda oliy ma'lumot egasi bo'lish uchun sirdan tahsil olmoqda. 35 nafar istiqbolli xodimlarning oliy ta'limi uchun kombinatimiz tomonidan moliyaviy mablag' ajratilgan, 2 nafar yosh xodim tashsiyanomaga asosida o'qimoqda.

Yurtboshimizning 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi 143-son Farmoniga muvofiq hamda aholi turmush farovonligini yaxshilash maqsadida, 2024-yilda tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan yo'naltirilgan qabul kvotalari orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj 120 nafar fuqarolarni ishga qabul qildik. Bundan tashqari, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universitetining 120 nafar bitiruvchilarining ham bandligi ta'minlandi.

Kuzatayotgan yilimizni tahlil etib, hazrat Navoiyning "Emas oson, bu maydon ichra turmoq", satrlarini eslayman. Bu yo'lda, yillar davomida ishlab chiqarish sinovlarida toblangan jonkuyar mutaxassislar, tajribali muhandis-texnik xodimlar, murakkab cho'l tabiatida irdosai buklimgan qahramon ishchilarimiz sharaflar bilan mehnat qildilar.

Yangi - 2025-yilda oldimizga katta maqsadlar qo'nganmiz, ko'zlagan marralarimizning ko'lami keng, zalvori ulug'vor! Vatan kutayotgan jasorat, kombinat rahbariyati bildirgan ishonch, bizga bu yo'lda olg'a borishga, "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi - Bosh direktori Quvondiq Sanayev to'la-kidlaganlaridek, ilmiy asoslangan holda mehnat qilishga, har bir ishga qat'iyat va mas'ullik hissi, yaratuvchanlik g'oyalari bilan yondashishga kuch beradi. "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da yuksak vazifalarni bajarishga shaymiz, bu ulug' jarayonga - yurt ishiga idrokimiz, qudratimiz va tajribamizni safarbar qilganmiz!

Naim AMONOV,
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.

Sarhisob

YANGI O'ZBEKISTON
RAVNAQI YO'LIDA

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

"Navoiyuran" davlat korxonasi texnologik jarayonlarni sulfat kislotasi bilan amalga oshiruvchi dunyodagi yagona uran qazib oluvchi korxonasi hisoblanadi. Uning yutug'i esa ushbu mahsulotlar korxonaning o'z ishlab chiqarish quvvatlarida tayyorlanadi.

Ishlarning samarali tashkil etilishi natijasida, 2024-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 13 trln. so'mdan ortiq bo'lishi kutilmoqda, bu esa o'sish sur'atining 130 foiz atrofida bo'lishini ta'minlaydi.

2022-yil 1-noyabrdan boshlab "Navoiyuran" davlat korxonasi tarkibiy bo'linmalari safiga "Uran va noyob metallar geologiyasi" IICHM va uning tarkibiga kiruvchi "Nurota", "Bukantau" va "Zirabuloq" geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari kiritildi. Bu, o'z navbatida, korxonada tomonidan mustaqil ravishda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirishda yangi davrni boshlab berdi. Joriy yil yakunida 2023-yilga nisbatan 46 foiz ko'proq geologiya-qidiruv ishlarini bajarilishi kutilmoqda. Texnologik burg'ilash hajmi 2,4 million metrga yetkaziladi. Bu, 2023-yilga nisbatan 39 foiz ko'proqdir. Uran qazib olish rejasini 127 foizga bajarildi. O'sish sur'ati 130 foizga yetishi kutilmoqda. Eksport ko'rsatkichlari 2023-yilga nisbatan 89 foizga oshadi.

O'tgan 2023-yil yakuni bilan "Ag'ron", "Aulbek", "Shimoliy Konimex", "Shimoliy va Janubiy Bukinoy", "Janubiy Ingichka", "Ziyokon", "Ko'hnur", "Armasoy", "Tuvaktov", "Oqsoy-1", "Mingboy", "Qizilqoq" va boshqa maydonlarda geologiya-qidiruv ishlarini jadallastirish va foydali qazilmalarning yangi zaxiralarini qidirish ko'lamini kengaytirish maqsadida, 1 million 21 ming metr burg'ilash ishlarini bajarish hisobida mineral xomashyo bazasi yanada mustahkamlandi.

"Navoiyuran" DK "Davlat soliq xizmatlari" reytingida O'zbekiston Respublikasining eng yirik soliq to'lovchilaridan biri bo'lib, 3-o'rinda qayd etilmoqda. 2024-yilda davlat budgetiga soliq to'lovlarini, dividendlar bilan birga, 5 trilyon so'mdan ortiqroqni tashkil etadi. Korxonaning yillik sof daromadi esa 4,9 trilyon EBITDA (foizlar, soliqlar, amortizatsiya va qiymatini pasayishdan oldingi daromad) ko'rsatkichi esa 6 trln. so'mdan ortiq bo'lishi kutilmoqda.

Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE), Jahon yadro assotsiatsiyasi (IAEA) a'zosi bo'lgan "Navoiyuran" davlat korxonasi hozirda ORANO (Fransiya), "Cameco Corporation" (Kanada), "Korea Hydro & Nuclear Power Co., Ltd" (Koreya Respublikasi), Konverdin (AQSH), Hindiston hukumatining "Atom energiyasi departamenti" kabi xalqaro hamkorlariga uranning chala oksidi-oksidi ko'rinishidagi tabiiy uran mahsulotini 100 foiz eksport qilib kelmoqda. Korxonada tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammoniy perrenat (reniy) mahsuloti shu kungacha dunyoning bir qator davlatlariga eksport qilib kelinayotgan edi. O'tgan 2023 yil yakunida korxonaning eksport geografiasini yanada kengayib, Avstriyaning "SEKOM Handelsges. MBH. & Co KG" kompaniyasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Dunyoning yetakchi uran ishlab chiqaruvchi AQSH, Fransiya, Kanada, Yaponiya, Janubiy

Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston kabi davlatlarning yirik kompaniyalari korxonaga bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi.

Korxonada Fransiyaning "Orano mining" va Xitoy Xalq Respublikasining Milliy Yadro Korporatsiyalari bilan hamkorlik memorandumi imzoladi. Buning natijasida "Nurlikum mining" O'zbekiston-Fransiya qo'shma korxonasi ishga tushirildi. 2022-yilning noyabr oyida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, "Navoiyuran" davlat korxonasi hamda Fransiyaning ushbu kompaniyasi o'rtasida uran qazib olish va qayta ishlash sohasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha uch tomonlama Strategik hamkorlik bo'yicha kelishuv imzolandi. Unda Jingeldi konida tajriba-sanoat uskunalarini qurish, yangi obyektlar bo'yicha geologiya materiallarni o'rganish, uran qazib chiqarishni hamda ishlab chiqarish darajasini oshirish bo'yicha texnik hamkorlik ishchi guruhini tashkil etish, uranning ilk uran chalaoksid mahsulotini ishlab chiqarish bo'yicha jami 500 million yevroga cha investitsiya kiritishga kelishildi.

Xitoy bilan qilingan hamkorlik doirasida Qizilqum hududi uran konlarida texnologik burg'ilash ishlarini boshlandi. Ushbu loyihaga muvofiq Ustyurt, Shimoliy Sulton Uvays va Cho'tko'l-Qurama uchastkasining istiqbolli hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib boriladi. Shuningdek, Madanli, Koscheka va Jantoir qora slanes uran konlarini xitoylik hamkorlar bilan birgalikda o'zlashtirish ishlarini boshlandi.

Mamlakatimiz rahbarining 2022-2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasi uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlariga bag'ishlangan qarorida ham mamlakatimizda yagona bo'lgan ushbu korxonani transformatsiya qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan va bu jarayon jadal davom etmoqda.

Korxonada Standard&Poor's Global Ratings agentligi tomonidan uzoq muddatli defolt reytingida BB- barqaror darajasi bilan baholandi. Ushbu reyting O'zbekiston reytingiga ham to'la mos keladi. Chunki korxonada to'liq davlatga tegishli bo'lib, tabiiy uranni qazib olish va qayta ishlashgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan respublikadagi yagona korxonasi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, xalqaro agentlik hisobotida "Navoiyuran" DK dunyodagi uran ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar orasida 5-o'rinni egallashi va ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlarga ega ekanligi ta'kidlangani ham mazkur reytingni qo'lga kiritishga asos bo'ldi.

Korxonada, shuningdek, Fransiyaning "Orano Mining" va Yaponiyaning "JOGMEC" hamda "ITOCHU" kabi yetakchi kompaniyalari bilan tuzilgan strategik hamkorlik kelishuvlari doirasida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni davom ettirmoqda. "Navoiyuran" davlat korxonasi boshlangan keng qamrovli transformatsiya jarayonlarida "SRK Consulting" kompaniyasining malakali ekspertlari ishtirok etishdi.

Kompaniya tomonidan korxonamizning uran xomashyo bazasi - mineral resurslar va ruda zaxiralarini hisobi hisob qo'rib chiqildi va xalqaro

standartlar asosida audit o'tkazildi. Bu, o'z navbatida, davlat asosiy balansi hisobidagi zaxiralar hisobotini xalqaro tan olingan JORC standartlari asosida tayyorlashni o'z ichiga oladi. Loyihalar 2023-yilda boshlandi va hisobotlar yangi standartlar asosida baholashning birinchi bosqichida mavjud konlarning 17 tasi qamrab olindi va muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi. Natijada 70 ming tonna uran zaxirasining xalqaro standartlar asosidagi hisoboti shakllantirildi va tasdiqlandi. Mazkur reyting korxonaga "davlat kafolatsiz", korxonada mol-mulkini garovga qo'ymasdan xorijiy kredit va to'g'ridan-to'g'ri investitsiya mablag'larni jalb qilish imkonini beradi.

Korxonamizda mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilayapti. 2024-yilda korxonada Mahalliyashtirish dasturi doirasida 19 ta loyiha bo'yicha qiymati 51,1 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarish qiymati qariyb 128,4 foizga, mahsulot turi bo'yicha esa 106 foiz o'sishga erishildi.

Xususan, 2023-yil o'ngida "Zafarobod" kon boshqarmasi tasarrufidagi 2-geotexnologik kon hududidagi ishlatilmayotgan eski Kompressor sexi binosini qayta rekonstruksiya qilish orqali yangi Metall bochkalar ishlab chiqarish uchastkasi tashkil etildi. Bu uchastka metallarga ishlov beruvchi, bo'yoq ishlarini olib boruvchi, qiymati 11,3 milliard so'mlik 11 ta zamonaviy maxsus dastgoh va pechlar bilan jihozlandi. Shu joyning o'zida 2022-yilda ishga tushirilgan Burg'ilash uskunalarining ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish uchastkasi imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan holda 7 ta loyiha bo'yicha qiymati 3,3 milliard so'mlik burg'ilash uskunalarini uchun 48 turdan ortiq zaruriy butlovchi hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Korxonaning "Nurobod" ishlab chiqarish maydoni Plastmassa quvurlari va mahsulotlarini ishlab chiqarish sexida qiymati 24,4 milliard so'mlik turli xil o'lchamdagi polivinilxlorid quvurlarni ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. "Uchquduq" ishlab chiqarish maydonining Sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexida ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan qiymati 2,9 milliard so'mlik sovutgichlarni hamda texnik olinguvgurtni eritish pechini ishlab chiqarish kutilmoqda.

Shuningdek, korxonada yil davomida elektron kooperatsiya portali orqali mahsulot sotib olish bo'yicha eng faol TOR-3 tarmoq korxonalariga qatorida muntazam qayd etildi. Bu esa, Prezidentimiz tomonidan korxonaga oldiga qo'yilgan ishlab chiqarish rejalari o'z vaqtida bajarish imkoniyatini yaratadi.

"Navoiyuran" davlat korxonasi ahil jamoasi Yangi O'zbekiston ravnaqi uchun mamlakatimizning jahon uran eksportchilari bozorida mavqei yanada mustahkamlash yo'lida bor kuch va salohiyatini hamda imkoniyatlarini safarbar etgan holda astoydil faoliyat yuritmoqda.

Djamil FAYZULLAYEV,
"Navoiyuran" davlat korxonasi
Bosh direktori.

TOMDILIK
FUQAROLAR
BANDLIGI
TA'MINLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrda "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida, "NKMK" AJda ham samarali ishlar amalga oshirilmog'ida. Yaqinda Navoiy viloyatining olis cho'l hududi hisoblangan Tomdi tumanining "Tillar markazi"da "Kambag'allikdan-farovonlik sari" dasturi doirasida Markaziy kon boshqarmasi rahbariyati hamda Tomdi tumani hokimligi mas'ullari tomonidan fuqarolarni shaffoflik va oshkorlik asosida ishga qabul qilish maqsadida ochiq tanlov bo'lib o'tdi. Tanlovda tumanidagi "Aktov", "Ayaquduq", "Keregetov", "Keriz", "Suket", "Tomdibuloq", "Shiyeli", "Sharq" kabi ovul va mahallalarning 200 nafardan ortiq aholisi ishtirok etdi.

Boshqarmamizning kon va zavodlariga "Ta'mirluvchi chilarangar", "Konveyer mashinisti", "Tegirmon mashinisti", "Elektrgazpayvandchi", "Avtomobil haydovchisi", "Jihozlarini ta'mirlash bo'yicha navbatchi-chilarangar", "Elektr jihozlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha elektromontyor" kasblari bo'yicha bo'sh ish o'rinlariga Tomdi tumanining 35 nafar fuqarosini ish bilan ta'minladi. Tanlov ochiq, oshkora va haqqoniy olib borilishini kuzatish uchun tuman oqsoqollarini ham taklif etdik. Mutaxassisligi bo'yicha savol-javobdan ijobiy natija olgan nomzodlar ayni vaqtda boshqarmamizning tarkibiy bo'linmalariga ishga joylashish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishmoqda, - deydi MKB direktorining o'rinbosari Akmal Normirzayev.

Konveyer mashinisti kasbi bo'yicha maxsus O'quv markazida o'tqan bo'lishiga qaramasdan ancha beri ishsiz edim. Mutaxassisligim bo'yicha Tomdi tumanidagi bir necha tashkilotlarga murojaat qilib ko'rdim, takliflar ham tushdi, lekin ma'qul kelmadi. Bugun tanlovda ishtirok etib, kombinat tizimiga ishga joylashdim. Endi o'zim qiziqishga kasbda ishlashimdan xursandman, - deydi Mukan Kenjibekov.

Aziza HUSANOVA.

Qaror va ijro

Iqtisodiy globallashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini yanada chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy kon boshqarmasida mahalliyashtirish borasida olib borilayotgan ishlar haqida kon boshqarmasining Mahalliyashtirish va hamkorlikni kengaytirish xizmati muhandisi Sharifjon Fayziyev bilan suhbatlashdik. U quyidagilarni gapirib berdi.

MAHALLIYLASHTIRISH
SAMARASI

Mahalliy sanoatni rivojlantirish ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turlarini ko'paytirish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda xaridorqir sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, avvalambor, mahsulotning xomashyo resursiga, iste'mol talabiga, yuqori sifatga, arzon narxga va malakali ishchi kuchiga ega bo'lishni taqozo etadi. Mahalliyashtirish viloyat yoki mintaqalarning ixtisoslashuvi bo'yicha hududiy mehnat taqsimoti bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida mahalliyashtirishni keng tatbiq qilish maqsadida, Prezidentimiz tomonidan istiqbolli qarorlar qabul qilingan. 2020-yil 21-avgustda "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va Vazirlar Mahkamasining tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga doir muhim hujjatlarini kon-metallurgiya sohasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kon boshqarmamizda importni qisqartirish, mahalliyashtirish darajasini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2024-yilda mahsulotlarning tasdiqlangan ishlab chiqarish jadvalariga asosan jami 6 ta yangi loyiha bo'yicha 9 milliard 404,3 million so'mlik,

shuningdek, 8 ta kengaytirilgan loyiha bo'yicha 48 milliard 274,4 million so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Joriy yilning o'n bir oyida mahalliyashtirish dasturi asosida yangi loyihalar bo'yicha 8 milliard 822,7 million so'mlik, kengaytirilgan loyihalar bo'yicha 44 milliard 215,1 million so'mlik mahsulotlar, jumladan, emulsion portlovchi moddalar, vagon-avtoag'dargichlar hamda ekskavator va burg'ilash uskunalarining ehtiyot qismlari ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, mahalliyashtirish dasturida ko'zda tutilmagan, import o'rnini bosuvchi 20 milliard 457,9 million so'mlik mahsulotlar ham ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish asosan mamlakatda mavjud bo'lmagan, import orqali kirib keladigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil etishni anglatadi. Bunday tovar va xizmat turlari nafaqat ichki bozordagi talabni qondirish, balki importni qisqartirish hamda eksportga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Mahalliyashtirish yoki mavjud ishlab chiqarishni takomillashtirish mamlakatda sifatli, eksportga yo'naltirilgan, dunyo bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarilishiga zamin yaratadi. Muhim dasturning izchillik bilan amalga oshirilishi tarmoqlar va hududlararo sanoat kooperatsiyasini yanada takomillashtirish, milliy va lular kurs darajasini maqbulashtirish, yangi ish o'rinlarining barpo etilishi va aholi daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Aziza IRISOVA
suhbatlashdi.

Oramizdagi odamlar

JANUBIY KOREYADA TA'LIM
OLGAN AZAMAT

Mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlangan 2024-yilda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish barobarida ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.



ShKb Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatik nazorat laboratoriyasi guruh boshlig'i Azamat Isamov Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi va Janubiy Koreyaning Adju universiteti hamkorligida IT Business "Ikki diplom" xalqaro magistratura dasturi asosida mazkur xorijiy oliyog'unda ta'lim olib qaytdi.

Azamat dastlab kollejdagi tahsil olib, elektromontyorlik kasbida ish boshlab, keyinchalik Navoiy davlat konchilik institutini tamomlab, Shimoliy kon boshqarmasida faoliyatini davom ettirdi. U axborot texnologiyalari bilan birga, til bilishning ahamiyati muhim ekanligini anglab, bo'sh vaqtlarida ingliz tilini o'rganishga intildi hamda sertifikatga ega bo'ldi. Ilmli yoshlarni NKMK rahbariyati ham qo'llab-quvvatlaydi, ularga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ana shu imkoniyatlar samarasi o'laroq Azamat Isamov Adju universitetining magistratura bo'limida tahsil oldi. Magistraturada o'qish xarajatlari to'liq "NKMK" AJ tomonidan qoplandi.

Ushbu muvaffaqiyatim zamirida kombinatimiz rahbariyatining bizga bildirdigan ishonchi va e'tibori yetibdi. IT Business sohasida olgan bilimlarimni kombinat rivoji yo'lida qo'llayman, - deya so'z boshladi A.Isamov. - Qisqa davr bo'lsada, iqtisodiyot ancha rivojlangan Janubiy Koreyaning ishlab chiqarish korxonalarida bo'ldik, amaliyot o'tadik. Ularning yutug'i - ilmiy va innovatsion faoliyatni boga olib borishi ekanligini angladim. Koreyada IT sohasi bo'yicha ta'limga keladigan bo'lsak, IT sanoatida Koreya bozorida nimaga talab bo'lsa, shuni o'rgatishadi. Koreya sanoatida IoT (Internet of Things) yarim o'tkaz-

gichlar bozori rivojlangan va ta'lim ham ko'proq shunga ixtisoslashgan. Darslarni ingliz va koreys tillarida pedagog sifatida kuchli professorlar emas, balki ilmiy tadqiqotlarga moslashgan professorlar o'tisharkan. Men ham magistrlik ishimi doktorlik darajasiga yetkazish uchun izlanayman. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini tahsil qiladigan bo'lsak, yangicha fikrlar, tadbirkorlik g'oyalari, halol raqobat muhiti ularning yuksalish omillari bo'lganligini ko'ramiz.

Azamat tanlagan soha murakkab va mas'uliyatli. Shimoliy kon boshqarmasida 7,5 mingga yaqin o'lchash vositalari bo'lib, ularning barchasi aynan A.Isamov boshchilik qilayotgan Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatik nazorat laboratoriyasi guruh metrologlari tomonidan qiyoslashdan o'tkaziladi. Metrolog yaroqli deya kafolat bergan uskunadan ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi. Bu, nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati, balki ishchi-xodimlar xavfsizligini kafolatlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Korxonada Azamatdek bilimga intiluvchan xodimlarini qo'shni davlatlar tajribasini o'rganish, sohaga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun o'qishga, malaka oshirishga jo'natadi. Yosh mutaxassis esa orttgan tajribasini Vatanda, o'z korxonasida qo'llanishi hamda ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga hissa qo'shishi lozim. Azamat Isamov ayni paytda ana shu mas'uliyatni chuqur anglagan holda mehnat qilyapti. Sidqidildan qilingan mehnat esa albatta yaxshi samara beradi

Laylo KARIMOVA.

Xabarlar

12 декабря 2024 года в Министерстве цифровых технологий Республики Узбекистан состоялась коллегиальная встреча с участием представителей 85 организаций в рамках форсайт, посвященная внедрению и перспективам развития цифровых технологий в АО «НГМК», на которой активно обсуждались текущие достижения и будущие перспективы развития Общества в области цифровизации. Форсайт-встреча, в ходе которой были разработаны сценарии дальнейшего развития, стала важным шагом на пути к эффективному применению передовых технологий в горно-металлургической отрасли.


ВНЕДРЕНИЕ И
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
В АО «НГМК»

Особое внимание в обсуждениях было уделено выступлению начальника Управления информационно-коммуникационных технологий АО «НГМК» Давлатова Б.Р., который поделился видением цифровой трансформации и стратегическими планами АО «НГМК», такими как цифровые решения в рамках цифровой трансформации НГМК. На сегодняшний день специалисты АО «НГМК» разработали стратегию цифровой трансформации на 2023-2030 годы, которая включает в себя 12 направлений: управление горными работами, цифровую гидрометаллургию, единую горно-геологическую систему, управление техническим обслуживанием, видеонаблюдение с использованием искусственного интеллекта и др. В результате трансформации ожидается поэтапное внедрение в деятельность комбина 67 современных цифровых решений.

Во время встречи обсуждались вопросы по цифровизации экологии и охраны окружающей среды, нехватки квалифицированных IT-специалистов в области искусственного интеллекта и автоматизации производства и т.д. Участники успешно обменялись опытом эффективного управления, который необходим в реализации и повышении уровня цифровой зрелости.

Внедрение цифровых технологий открывает широкие перспективы для повышения эффективности, безопасности и устойчивости производства. С учетом полученных выводов, АО «НГМК» будет продолжать активно внедрять цифровые технологии в деятельность комбина, что позволит улучшить операционную эффективность производства.

Фирюза НУРАЛИЕВА,
инженер УИКТ АО «НГМК».



Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

■ Ijod

Ona yurt seningdek yurt yo'q jahonda,
Beg'ubor xalqingdek xalq ham topilmas.
To'ylaringdek to'ylar qilolmas hech xalq,
Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

Ajdodlar jahonni lol qilib keldi,
Uch ming yil oldindan bugunni bildi.
Navoiy jahonni qalamda oldi,
Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

O'g'onlaring eng kami Fitratdek domla,
Qizlaring eng yaxshi qo'shig'i alla.
Keng jahon senga tan bergan mahalda,
Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

Sarbo'ning kelib qo' xalqini dedi,
Birinchi kundanoq xalq g'amin yedi.
Har bir fuqaroni tinglayman dedi,
Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

Konchilaring zabardast, tog'larni tilar,
Dehqonlaring ketmoni oltin undirar.
Polvonlaring bayrog'ing baland ko'tarar,
Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

Abdulhamid Qurbon sen bilan masrur,
Sening bo'yingdan qalbida g'urur.
G'ururi eng uzoq yulduzni urur,
Yangi yiling muborak, jon O'zbekiston!

Abdulhamid QURBONOV,
"Zarmitan" koni yetakchi muhandisi.

■ Medicina

ЧТО ТАКОЕ ИКОТА?

Икота – неконтролируемая физиологическая реакция, в развитии которой участвует диафрагмальный нерв, блуждающий нерв. Во время икоты напрягаются межреберные и диафрагмальные мышцы, как при вдохе, но дыхательные пути перекрываются, поэтому происходит кратковременная задержка дыхания.

Икание может возникать у детей и взрослых при переохлаждении, на фоне стресса, при внезапных перепадах температуры, курении. Иногда эпизод возникает без видимых причин, являясь случайным симптомом, который ничего не значит. Физиологическая икота обычно кратковременная и проходит сама по себе.

Кратковременная икота не вредит здоровью. А вот длительная икота, если ее не устранить, может привести к недоеданию, бессоннице, депрессии и даже смерти – но такое бывает крайне редко.

Какие болезни могут вызвать икоту: гастроэзофагеальная рефлюксная болезнь, патология пищевода, заболевание желчного пузыря, гепатит, вздутие живота различной этиологии, рак печени.

Самый простой способ быстро избавиться от икоты – это медленно выпить стакан воды, широко раскрыв грудную клетку. Также можно положить кусочек льда в рот и держать его там пока он не растает. Если нет под рукой ни воды, ни льда, на-

чать делать ритмичные глотательные движения. Также можно задержать дыхание на 10-20 секунд. Питье горячих и холодных напитков медленными глотками, изменение положения тела, глотание кусочков сахара тоже хорошо помогают избавиться от икоты.

Икота – симптом, возникающий при неправильном составленном рационе питания и заболеваниях желудочно-кишечного тракта. Подразумевает сокращение диафрагмы длительного типа. Чтобы избавиться от икоты и устранить причину ее возникновения требуется консультация терапевта. Непроходящая в течение нескольких дней постоянная икота может свидетельствовать о наличии у человека заболевания, связанного с нарушением функционирования блуждающего нерва. В этом случае необходимо пройти обследование.

Ирина ЕРМОЛОВИЧ,
врач взрослой поликлиники МСО
ГУ «Фонд НГМК».

■ Bilib qo'ygan yaxshi

QISHDA IMMUNITETNI KO'TARISH CHORALARI

Sizda immunitet qay darajada ekanligini kasallikning davom etish muddati yoxud jarohatning bitishiga qarab aniqlash mumkin. Jarohat tez bitsa, tumov tez chekina, demak, organizmingizda immunitetlik darajasi yuqori. Lekin xastalik asoratli bo'lsa, jarohat sekin bitsa-chi? Unda siz immunitetni ko'tarish uchun harakat qilishingizga to'g'ri keladi.

Nega immunitet pasayadi?

- Tez-tez takrorlanib turadigan ruhiy zarbarlar (stress);
- Organizmga to'planib qolgan, biologik faol minerallar va vitaminlarning kamayib ketishiga sabab bo'ladigan ovqat chiqindilari;
- Antibiotiklarni keng qo'llash;
- Atrof-muhitdagi zararli kimyoviy moddalarning ko'pligi;
- Dori-darmonlardan noto'g'ri foydalanish;
- Og'ir jarohatlar va jarrohlik operatsiyalari hayot jarayonida yuzaga keladigan immunodefitsit holatiga sabab bo'ladi.

Vitaminlar manbasi

Tarkibida A vitamini bo'lgan mahsulotlar immunitetni ko'tarish xususiyatiga ega. A vitaminining organizmdagi asosiy vazifasi immun tizimini boshqarish va ko'rish qobiliyatini me'yorlashtirishdan iborat. Asosan, baliq mahsulotlari A vitamini bilan to'yingan bo'lib, bolalar organizmi uchun foydaligina katta. Tuxum, jigir va sut mahsulotlarida ham A vitamini mavjud.

Gripp va o'tkir respirator virusli infeksiyalarni yuqqanda vitamining boy mahsulotlardan iste'mol qilish ularning tezda bartaraf etilishiga olib

keladi. Na'matak tarkibida vitaminlar juda ko'p.

Uy sharoitida

Immunitetni ko'tarish asli kasallikning oldini olishdir. Buning uchun har kuni nahorga 1-2 dona qizil sabzi, 2 dona apelsin yoki olma, tushlik paytida yarim bog' selder yoki kashnich, salat bargi, yotishdan oldin 1 piyola qatiq iste'mol qilish foydaliroq. Petrushka, selder, shivit, salat bargi tanaga quvvat beruvchi, yuqumli kasalliklardan himoyalovchi ta'sirga ega.

Immunitetni ko'tarishda hamda asab tizimini mustahkamlashda aslga teng keladigan yo'q. Yotishdan oldin 1 osh qoshiq asal yeb, ortidan qaynatilgan iliq suv ichiladi. Yoki sedanani yanchib, aslga aralashiriladi va har kuni nahorga no'xatday miqdordagisi iste'mol qilinadi.

Foydali mashg'ulotlar:

- * Hammomga borish.
- * Sayr qilish.
- * Qiziqarli va quvnoq kitob o'qish.
- * Kino, teatr va konsertga borish.
- * Sport bilan shug'ullanish.
- * Do'stlar bilan suhbatlashish.
- * Meva va sabzavotlarni iste'mol qilish.
- * Chiniqtiruvchi muolajalarni boshlash.
- * Bo'shashtiruvchi mashqlar bajarish.
- * Sizni qiziqitiruvchi xobbingizga vaqt ajratish.
- Har qanday foydali va yuqumli muolajalar yaxshidir. Ularning barchasi immunitetni ko'taradi. Xursandchilik butun organizmning ishini yaxshilab, immunitetning mustahkamlanishiga yordam beradi. Chekish va alkogoldan yiroq bo'ling. Ular immunitetni keskin pasaytiradi.

■ Ijod

Издrevле источником культуры являлась человеческая деятельность, познание и творчество. На протяжении веков культура изменяет как физиологические человеческие процессы, так и усиливает разумность, креативность и духовность. Культура пробуждает и воспитывает в человеке самые светлые качества, такие как взаимопонимание, толерантность, солидарность, доверие, добротель.

ВЫСОКИЕ ДОСТИЖЕНИЯ

культурных учреждений Навоийского горно-металлургического комбината

Навоийский горно-металлургический комбинат, являясь промышленным гигантом вот уже более 65 лет, большое внимание уделяет проведению культурного досуга своих специалистов и членов их семей. В пяти региональных управлениях НГМК действует 4 дворца и дома культуры и два культурно-спортивных комплекса, в которых трудятся специалисты высокого уровня. На сегодняшний день объекты культуры НГМК насчитывают 222 специалиста, которые возглавляют 124 коллектива художественной самодеятельности, 6 библиотек, центра детского творчества, изостудии и другие отрасли культуры. Коллективы художественной самодеятельности посещают около трех тысяч детей и взрослых. На протяжении 2024 года во дворцах и домах культуры НГМК проведено около 1500 различных культурно-массовых мероприятий для работников комбината, их детей и пенсионеров НГМК, также мероприятия для жителей области и города республиканского и областного масштаба. Благодаря Совету профсоюза НГМК в течение года во дворцах и домах культуры были организованы премьеры спектаклей и фильмов, а также концерты заслуженных деятелей культуры Узбекистана.

Особое внимание и гордость заслуживает участие коллективов художественной самодеятельности в международных конкурсах.

В Ташкенте на международном конкурсе «ЕВ-РАЗИЯ», в котором приняли участие 5 стран, участники танцевального ансамбля «Ширин», руководителями которого являются Анвар Ганиев и Хурматой Кенжаева, со своими неповторимыми танцами завоевали Гран-при. На престижном международном смотре «ASTANA STARS» участница оркестра «Сказ» Амина Шавкатова и оркестровый дирижер Елена Умерова заняли почетное 1-е место. На 51-й международной выставке детского изобразительного искусства, проходившей в Чехии, руководитель студии изобразительного искусства ДК «Фарход» Нилуфар Ходжаева и ее ученики стали победителями. Посол Чешской Республики в Узбекистане Лубомир Фреборт посетил Дворец культуры «Фарход» и лично наградил победителей.

На международном фестивале «Messire Makipi», проходившем 22-29 апреля в Манисе, Турция, приняли участие ансамбли «Марварид» и «Фарход» и завоевали кубок «Лучшая команда фестиваля».

15 июня в Санкт-Петербурге на официальном международном конкурсе «Повет мелодий», организованном Министерством культуры Российской Федерации, участница оркестра «Нихол» Севинч Усмонова заняла 1-е место.

6-8 июля в Ташкенте на международном конкурсе



танца «Talanti-SUMMER FEST TASHKENT 2024» коллектив ансамбля народного танца «Счастлиное детство» завоевал 2 диплома Гран-при и 2 кубка.

Руководитель кружка «Бухарское золотое шитье» Центра детского творчества Фотима Якубова и участники кружка в 87-м международном конкурсе декоративно-прикладного искусства в г. Новосибирск России были награждены дипломами I-II степени. Также 4-6 июня в столице Франции Ф.Якубова и ее воспитанницы в международном конкурсе «Караван» заняли почетное 1-е место. На прошедшем 9 ноября в Лондоне международном конкурсе «EURO VISION LONDON STARTS» «Европа 2024» Фотима Якубова была удостоена награды «Гран-при». Все эти конкурсы проводились онлайн.

Фольклорно-этнографический ансамбль «Дильнаво» ДК «Олтин водий» РУ Зарафшан ГУ «Фонд НГМК» в мае в международном фестивале «Tashkent Triumph Festival» в номинации «Народный танец» завоевал Гран-при. Эстрадный ансамбль ударных инструментов «Аллегро» в VI международном конкурсе среди молодежи «Ритмы Евразии» в номинациях «эстрадное исполнение», «solo малый барабан» и в жанре «народное этнографическое исполнение» занял первое место. А в ноябре в международном инновационном фестивале «Талантливые дети» также заняли три первых места.

Эстрадно-танцевальный коллектив «Экспрессия» ДК «Учкудук» в международном конкурсе «Роза Востока 2024» в номинации «эстрадный танец» занял 2-место и в октябре также проводимом в г.Ташкенте в международном конкурсе «Art Silk Way» в номинации «эстрадный танец» завоевал

Гран-при. Вокальный коллектив «Консонанс» ДК «Учкудук» по различным направлениям вокала завоевал четыре Гран-при и одно первое место.

Говоря о насыщенной, яркой и интересной жизни коллективов дворцов и домов культуры НГМК хочется отметить проведенный в ноябре второй фольклорно-этнографический конкурс «Кызылкулм олтин мероси» среди учреждений культуры ГУ «Фонд НГМК», в котором участвовали коллективы художественной самодеятельности (возраст от 7 до 70 лет). В этом конкурсе около 300 талантливых участников, в разных номинациях по фольклору боролись между собой за звание лучших.

Долгожданным и волнительным событием для культурных учреждений НГМК была поездка из более 300 участников коллективов в г.Ташкент в мае 2024 г., где самые лучшие коллективы и их номера были продемонстрированы зрителям Ташкента во Дворце Профсоюзов, вызвав восторг и бурные овации зрителя.

Обезграничным таланте творческих коллективов дворцов и домов культуры комбината можно говорить много и долго, но без поддержки руководства АО «НГМК», ГУ «Фонд НГМК» и Совета профсоюза НГМК столько ярких, волнительных и незабываемых моментов участников культурных учреждений могло бы и не быть. Мы очень надеемся, что 2025 год будет не менее впечатляющим и разнообразным для ценителей культуры.

Наргиза ХАМИДОВА,
руководитель группы по организации культурно-спортивной деятельности ГУ «Фонд НГМК».

■ Ma'naviyat

ZIYO MASKANLARI RIVOJI YO'LIDA

“Farhod” madaniyat saroyi kutubxonasida “Kutubxona yangilanish davrida” mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Tadbirda soha mutaxassislari kutubxonalarni yangilash va xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni muhokama qildilar.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar keng ko'lamli bo'lib, barcha sohalarni qamrab olayapti. O'qish, bilimni oshirish millat taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi. Seminarda “NKMK jamg'armasi” DM tasarrufidagi 5 ta kutubxona, “NKMK” AJning texnik kutubxonasi, A.Qodiriy nomidagi Navoiy viloyat kutubxonasi hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti kutubxonasi xodimlari ishtirok etdilar. Unda yangilanish davrida kutubxonalarning o'rni, ularning rivojlanish strategiyalari va kutubxona ishi jarayonlarini tashkil etish to'g'risida so'z bordi. “Farhod” madaniyat saroyi kutubxonasi mudiri S.Jeltikova, “NKMK” AJ texnik kutubxonasi mudiri Z.Badayeva, A.Qodiriy nomidagi Navoiy viloyat kutubxonasi direktori Sh.Bakayeva, “Farhod” madaniyat saroyi kutubxonasi filiali mudiri G.Raxmatova, bolalar bo'limi mudiri S.Nurullayevalar mavzu yuzasidan chiqish qildilar. “Farhod” madaniyat saroyi kutubxonasi xodimlari tomonidan tashkil etilgan kitoblar ko'rgazmasida 300 dan ortiq yangi bosma mahsulotlar namoyish etildi. Joriy yilda madaniyat saroyi kutubxonasi uchun ikki mingga yaqin nomdagi 60 million so'mlik kitoblar xarid qilindi. “Farhod” madaniyat saroyi va uning filiali kutubxonasining kitob to'plamlari bilan ishlashni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan “Ulibrary” axborot-kutubxona tizimining (AAKT) taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ushbu tizimning afzalliklarini o'rganarkan, ishtirokchilar avtomatlashtirish kutubxona ishlarni soddalashtirib, takomillashtira olishidan batafsil xabardor bo'lidilar. Ushbu tizim resurslarni samarali boshqarish uchun zamonaviy yechimni taklif etadi.

AAKT “Ulibrary” - bu kutubxona fondlari, o'quvchilar, tashriflar va kitob berishni hisobga olishni ta'minlaydigan, yangi avlodning ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan kutubxona dasturidir. Madaniyat saroyi kutubxonasi, kelajakda mamlakatning butun kutubxona tarmog'ini qamrab olishga mo'ljallangan ushbu dasturning birinchi mijozidir. Hozirgi kunda kutubxona xodimlari “Ulibrary” AAKT dasturini o'rganib chiqish va joriy etish bo'yicha faol ish olib bormoqdalar.

- Kitob fondini e'tibor va g'amxo'rlik bilan boshqarish samarali kutubxo-



na boshqaruvining asosini tashkil etadi, — deydi tadbir tashkilotchisi, “NKMK jamg'armasi” DM madaniyat va sport faoliyatini tashkillashtirish guruhi rahbari Nargiza Hamidova. — Zamonaviylik sari intilishimizda jismoniy vositalarning yaxlitligini saqlash e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Kitob fondlari va har bir asar beqiyos boylikdir.

Seminar davomida kutubxonalar fondini boyitish, kitobxonlarga qulayliklar yaratish yuzasidan g'oyalari va amaliy strategiyalar muhokama etildi. Zero bu yo'nalishtda ham yangi texnologiyalarni qabul qilishga ehtiyoj sezilmogda. Ushbu tadbir zamonaviy kutubxona ish jarayonlarini rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Seminar yakunida “Farhod” madaniyat saroyi kutubxonasi xodimlari tomonidan “NKMK tarixi” muzeyida turkiy olimning buyuk shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iyning 300 yilligiga bag'ishlangan “Maxtumquli - tinchlik va do'stlik kuychisi” mavzusida mahorat darsi o'tkazildi. Uning yubileyi 2024-2025-yillar uchun YUNESKOning unutilmas sanalar ro'yxatiga kiritilgan.

Aynura RAZZOQOVA,
“Farhod” MS kutubxonasi kattalar bo'limi mudiri.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-
METALLURGIYA
KOMBINATI” AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin
SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg'armasi” DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Sptamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: Adiba AXMEDOVA
Texnik muharrir: Zafarjon OLIMOV

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi. Buyurtma № 676. 2024-yil 25-dekabr 17:00 da chop etishga topshirildi.